



THE ISSUE OF IMAGE AND IMAGE IN FICTION

Gulbahor Yunusaliyeva

lecturer

Fergana Polytechnic Institute

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: image, imagery, means of artistic representation, theoretical foundations, genesis.

Abstract: The article examines the role of image and imagery in fiction, its genesis and theoretical foundations.

Received: 28.06.22

Accepted: 30.06.22

Published: 02.07.22

BADIIY ADABIYOTDA OBRAZ VA OBRAZLILIK MASALASI

Gulbahor Yunusaliyeva

o'qituvchi

Farg'ona politexnika instituti,

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: obraz, obrazlilik, badiiy tasvir vositalari, nazariy asoslar, genezis.

Annotatsiya: Maqolada tasvir va tasvirning badiiy adabiyotdagi o'rni, uning genezisi va nazariy asoslari ko'rib chiqiladi

ПРОБЛЕМА ОБРАЗА И ОБРАЗА В ХУДОЖЕСТВЕ

Гульбахор Юнусалиева

преподаватель

Ферганский политехнический институт

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: образ, образность, средства художественного изображения, теоретические основы, генезис.

Аннотация: В статье рассматривается роль образа и образности в художественной литературе, его генезис и теоретические основы.

KIRISH

Adabiyot soʻz sanʼati ekan, bevosita u turli xil obrazlar orqali ifodalanadi. Badiiy obraz xususiyatini oʻrganishni atamaning mazmunidan boshlagan maʼqulroq. “Obraz” atamasi “raz” (chiziq) soʻzidan olingan boʻlib, “raz” soʻzidan “razit” (chizmoq, yoʻnmoq, oʻymoq) va undan “obrazit” (chizib, oʻyib, yoʻnib shakl yasamoq) soʻzi yasalgan. “Obrazit” dan “obraz” (“umuman olingan”) vujudga kelgan. Obraz atamasi ilk bor Arastuning “Poetika” asarida keltirib oʻtilgan.

ASOSIY QISM

V.G.Belinskiy obraz haqida “...Unda tasodifiy ortiqcha narsa yoʻq. Hamma qismlar butunga boʻysungan, hammasi bitta maqsadga yoʻnaltirilgan, hammasi birlikda bitta goʻzallik, yaxlitlik va individuallikni maydonga keltiradi, shuning uchun ham biz bu odam Yusufbek hoji, bu odam Qori Ishkamba, mana bu qiz Layli, mana bu yigit Majnun deymiz. Ularning har biri “Voqelikdagi maʼlum hodisalarning magʻzini chaqib beradigan, umumlashtiruvchi...har qanday voqea- hodisadan yuksak ...har qanday tarixdan ishonchliroqdir”. Darhaqiqat, obraz bitta maqsadga yoʻnaltirilgani uchun ham asardagi obrazlarni yuqorida taʼkidlanganidek nomlaymiz. Bu esa oʻquvchining tafakkurida oson joylashishiga imkon beradi.

V.G.Belinskiy obraz atamasining faqatgina sanʼatda ishlatilmasligini, jumladan, falsafada hayotni inson ongidagi inʼikosi obraz deb tushunish odat tusiga kirganini, fan-voqelik faktlaridan ularning mohiyatini, gʻoyasini ajratib olishini aytadi. Fandagi obraz haqida toʻxtalib uni qay yoʻsinda ajratib olishni taʼkidlaydi. Voqea -hodisaning shunchaki tashqi koʻrinishi emas, balki ana shu koʻrinishlarning eng tipigi (oʻrnakli misolini, eng arziqli namunasini) ifodalashga xizmat qiladi u koʻrgazmali (illyustrativ) obrazdir. Albatta uning mohiyatida tipiklik (umumlashtirish) xislati boʻlsa-da, lekin voqelik faktlarini mubolagʻali tarzda koʻrsata olmaydi. Hayotda “obraz” atamasi yana boshqa maʼnoda ishlatiladi, uni surʼatli (fotografik) obraz deb yuritish mumkin. Obraz goʻzalligi va taʼsirchanligi bilan millionlar qalbini zabt etadi va zabt etib kelmoqda. U V.G.Belinskiy aytganidek, “bashar hayotining tepib turgan yuragi, uning qoni va joni, uning shuʼlasi va quyoshi”ga aylanadi. Chunki obraz jonli harakati, jozibadorligi, yorqinligi, bilan oʻzida voqea hodisalarning qonuniyatini chuqur mujassam etadi. Hotam Umurov ham badiiy obraz haqida “Adabiyotshunoslik nazariyasi” darsligida shunday fikrlarni bildirib oʻtadi: “Badiiylik sanʼatning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri – badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslik fanining markaziy muammosi sanaladi. Adabiyotshunoslik ilmida “obraz” deganda inson ongida inʼikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birgalikda soʻz vositasida sanʼatkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib toʻqilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi. H.Umurov toʻgʻri taʼkidlaganidek,

badiiylikni, badiiy adabiyotni yuzaga keltiruvchi belgisi obrazdir. Shuning uchun asardagi mayda detaldan katta obrazgacha ma'lum maqsadni amalga oshirish uchun qo'llaniladi.

Adabiyotshunos Erkin Xudoyberdiyev H.Umurovning obraz haqidagi fikrlaridan farqli o'laroq, u obraz va uning ahamiyati haqida quyidagilarni keltirib o'tadi: "Voqelikni obrazli tarzda aks ettirish adabiyot va san'atning asosiy belgilaridan biridir. Obrazli aks ettirish alohida shaxslarda, hodisalarda, muayyan his tuyg'ularda hayotning umumiy, qonuniy tomonlarini taqozo etadi. Albatta, obrazli tasvirning bunday murakkab ko'rinishlari birdaniga paydo bo'lib qolgan emas. U uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining buyuk yutuqlari tufayli voqelikdagi umumiy muhim va tipik tomonlarni, hodisalar mohiyatini, "hayotiy shakl" da ochib berish chinakkam badiiy obrazlarning asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Darhaqiqat, obraz bu adabiyotning, ayniqsa, badiiy adabiyotni shakllantiruvchi, uni yuzaga keltiruvchi o'quvchining ongi va shuurida asarga, uning zamirida esa hayotga bo'lgan qarashlari va fikrlarini kengaytiruvchi vosita desak mubolag'a bo'lmas. E.Xudoyberdiyev obrazning ahamiyatli va o'rinli xususiyatlari haqida to'laroq ma'lumot bergan. Olim obrazning alohida xususiyatlari borligini ham ta'kidlab o'tadi. "Shunday ekan obrazning turlari va unga xos bo'lgan xususiyatlarni aytib o'tamiz. Badiiy obrazga xos birinchi xususiyat, jonli, aniqligi o'ziga xos belgilarga boyligi bo'lib, bu xususiyat san'at va adabiyotning kishilarga hissiy ta'siri qudratini belgilaydi. Obrazning o'ziga xos ikkinchi xususiyati shundan iboratki, u o'zida ayni holda aniq, takrorlanmagan birga umumiy, tipik belgilarini mujassamlashtiradi. Obraz jonli va aniq bo'lsagina kishilarga tezda ta'sir ko'rsatadi". U obrazning jonli va aniq bo'lish bilan bir qatorda, o'zida ayni holda aniq takrorlanmaydigan umumiy, tipik belgilarini mujassamlashtirishi haqida ta'kidlab o'tgan va obraz shunday xususiyatlarga qachonki ega bo'lsagina, kishilarga tezda ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrni olg'a surgan.

Aslida "obraz" slavyan tillariga xos bo'lib, u voqea-hodisalarning xayolda namoyon bo'ladigan manzarasini bildiradi. Slavyanlar "obraz" deganda, avvalo, odamzotni azob - uqubatlardan saqlab qolish uchun Alloh tomonidan yuborilgan Iusu Xristus (iso payg'ambarning) rassomlar, haykaltaroshlar tasvirlagan qiyofasini tushunishgan.

XULOSA

Xulosa shuki, adabiyotga hayotdagi hamma (inson, narsa-buyum, hayvon, hodisa, predmet, o'simlik; ko'chma ma'nodagi so'zlar, iboralar, leksik resurslar, ifoda tasvir vositalari — mubolag'a, kichraytirish, o'xshatish, omonim, sinonim, antonimlar; anafora, epifora va sh.k) unsurlar kirar ekan, kirganda ham san'atkor ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalashib, eng muhimi insonlashib va bir butunlik kasb etib muhrlanar ekan, ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
2. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
3. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
4. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – С. 245-249.
5. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In *Конференции*.
6. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University*: Vol. 2 , Article 12.
7. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
8. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
9. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.
10. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In *Конференции*.
11. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 4-91.
12. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
13. kizi Yunusaliyeva, G. A. (2021). CHARACTER CREATION ABILITY OF ERKIN A'ZAM.
14. Khalloкова, М. Е. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

15. Ergashevna, K. M. (2021). Factors for improving the quality of education in primary schools of non-state educational institutions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 792-796.
16. Халлокова, М. (2022). Нодавлат таълим муассасаларида таълим тизимини модернизациялаш. *Общество и инновации*, 3(1), 151-157.
17. Oybek Barziyev. (2021) Traditional Poetic Series Related to Detail Motivating to Enlignment. *International Journal on Integrated Education*. 4(12).
18. Barziev, O. (2021). LYRICAL INTERPRETATION OF “I” IN THE POETRY OF ANBAR OTIN, DILSHODI BARNO AND SAMAR BONU. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(06), 61-66.
19. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
20. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
21. Barziyev Oybek. THE DESCRIPTION OF NATIONALITY IN UZBEK POETRY IN THE PERIOD OF LATE XIXthCENTURIES AND EARLY XXth CENTURIES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2021, P. — 3314-321.